

**BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISHDA FORTEPIANO IJROCHILIGINI O'RNI****Normurodova Lobar Mamasoliyevna***Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi. Pedagogik  
ta'lomitlat tarixi yo'nalishi tayanch doktoranti***Yuldashev Umid Yuldashevich***Ilmiy rahbar: PhD, v b professor***MAQOLA  
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 24.09.2025**Revised: 25.09.2025**Accepted: 26.09.2025***KALIT SO'ZLAR:**

*fortepiano  
ijrochiligi, musiqa  
ta'limi, kasbiy  
kompetensiya,  
pedagogik yondashuv,  
ijodkorlik.*

*Ushbu maqolada fortepiano ijrochiligining musiqa ta'limida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijrochilik, pedagogik, kommunikativ, jo'rnavozlik, ijodiy va estetik kompetensiyalarini rivojlanirishda fortepiano mashg'ulotlarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, innovatsion metodlar va yondashuvlarning qo'llanilishi bo'yicha ilmiy xulosalar beriladi..*

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lif tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — kasbiy kompetensiyalarga ega, zamon talablari bilan hamqadam mutaxassislar tayyorlashdir. Xususan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining tayyorgarligida fortepiano ijrochiligi alohida o'rin egallaydi. Fortepiano nafaqat asosiy ijrochilik asbobi sifatida, balki o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli, fortepiano mashg'ulotlarini samarali tashkil etish orqali bo'lajak o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlanirish mumkin. Chunki musiqa o'qituvchisi bir vaqtning o'zida ijrochi, tashkilotchi va pedagog sifatida faoliyat yuritishi talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, fortepiano ijrochiligi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Fortepiano cholg'usi o'zining keng diapazoni, polifonik imkoniyatlari va universalligi bilan ajralib turadi. Musiqa ta'limida u quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi: yakka ijrochilikni rivojlanirish; ansambl va xor jo'rligini shakllantirish; o'quvchilarda musiqiy tafakkurni va eshitish qobiliyatini rivojlanirish; pedagogik jarayonlarda musiqiy materiallarni os on

yetkazish. Fortepiano mashg‘ulotlari jarayonida ijrochi nafaqat te xnik mahoratini, balki musiqiy tafakkuri, ritmik sezgisi, badiiy ifoda va estetik didini ham shakllantiradi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida quyidagi asosiy kompetensiyalar shakllanadi:

- 1.Ijrochilik kompetensiyasi – asarlarni texnik va badiiy jihatdan mukammal ijro etish.
- 2.Pedagogik kompetensiya – o‘quvchilarga musiqiy materialni tushunarli yetkazish,metodik yondashuvlarni qo‘llash.
- 3.Kommunikativ kompetensiya – sahna madaniyati, ansambl va jamoaviy ijro ko‘nikmalarini shakllantirish.
- 4.Ijodiy kompetensiya – improvizatsiya, aranjirovka, asarni qayta ishslash orqali talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish.
- 5.Estetik kompetensiya – musiqiy did va estetik zavqni shakllantirish.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining jo‘rnavozlik qobilyatini yanada rivojlantirish nihoyatda muhim omil hisoblanadi. Chunki, umum ta’lim maktablarida darslarni tashkil qilishda, bolalarni xor sinfida kuylatishda (ayniqsa ashulani dastlabki o‘rgatish bosqichlarida) ovoz sozlash mashqlarida fortepianoda jo‘r bo‘lish lozim. Jo‘rnavozlik qilish esa bo‘lajak musiqa o‘qituvchisidan o‘z ustida ishslash, mazkur asbobda yetaricha erkin va yaxshigina ijro mahorati bo‘lishlikni talab etadi. Bunda ritmni his qilish nihoyatda muhim hisoblanadi. Fortepiano asbobida solo asarlarni mahorat bilan ijro etgan ijrochida ritmni yaxshi his qilish qobilyati rivojlanmagan bo‘lsa, o‘rtacha qiyinlikdagi asarga mukammal jo‘r bo‘la olmasligi mumkin. Ritmni yaxshi qilishda, jo‘rnavozlik qilishni dastlabki bosqichlarida jo‘rnavoz asarni o‘z qobilyatiga nisbatan ancha osonroq shaklidan boshlagani durustroq. Bunda jo‘rnavozning butun diqqati asarning matnida bo‘lib qolmaydi va u o‘z partiyasidan tashqari xor yoki ovoz, solo asbob partiyasini ham bermalol ijro davomida kuzatib, ulgurib, his qilib bora oladi. Jo‘rnavozlik malakalari rivojiana boshlaganini his qilish bilan asarlarni nisbatan murakkabrog‘iga o‘tish maqsadga muvofiq. Albatta bu qisqa vaqt ichida rivojlanib qolmaydi. Bu jarayon jo‘rnavozning mehnati va sabriga, qobilyatiga bog‘liq bo‘lib bir necha oylarda musiqa asbobda jo‘r bo‘lish qobilyati takomillashganini kuzatish mumkin. Fortepiano musiqa asbobida deyarli barcha musiqa asboblariga va inson ovoziga jo‘r bo‘lish mumkin. Bunda musiqa asbobga va inson ovoziga jo‘r bo‘lish jo‘rnavozdan turli malakalri, his qilishni talab etadi. Masalan, vokolistga yoki xor jamoasiga jo‘r bo‘lganda kuylovchining nafas olish taktlarni va ritunoto yoki accelerando, stretto qismlarda u bilan bir butun bo‘lib ijro etishni o‘zlashtirish lozim. Xalq cholg‘u asboblariga jo‘rnavozlik qilishda esa ritmni his qilish nihoyatda muhim. Albatta bunday cholg‘ular asari ko‘pincha klassik musiqadan farq qiladi yani sharqona ohangda bo‘ladi. Shuning uchun bu uslubda aksentlar va nuqtali ritmni his qilish lozim. Zamonaviy ta’limda fortepiano mashg‘ulotlarini yanada samarali qilish uchun innovatsion metodlardan foydalanish dolzarbdir: Multimedia va raqamli texnologiyalar (PianoMarvel, Musescore, Synthesia) orqali mustaqil mashg‘ulotlarni tashkil etish. Differensial yondashuv – talabalar qobilyatiga mos repertuar tanlash. Integrativ yondashuv – fortepiano mashg‘ulotlarini nazariy fanlar (musiqa nazariyasi, solfedjio, musiqiy tarix) bilan bog‘lash. PianoMarvel – real vaqt rejimida ijrochining ijrosini baholab, xatoliklarni ko‘rsatib bora di, bu esa talabaga xatolarini anglab,

ularni tezkor tuzatish imkonini beradi. Bu raqamli fortepiano ta’limi uchun mo‘ljallangan interaktiv o‘quv platforma bo‘lib, pianino chalishni o‘rganish jarayonini tizimlashtirish, vizualizatsiya va gamifikatsiya orqali samarali o‘rgatishga xizmat qiladi. Platforma 2009-yilda amerikalik musiqa pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunda u professional musiqachilar, musiqa o‘qituvchilari va talabalar tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Asosiy funksiyalari: Real vaqtida baholash (assessment) – Talabaning har bir notani qanday chalayotgani aniqlanadi, xatolar aniqlanib, darhol tahlil qilinadi. Bu esa reflektiv o‘rganishni rag‘batlantiradi. Standard Assessment of Sight Reading (SASR) – Notani varaqdan o‘qish(sight reading) ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yaratilgan avtomatik diagnostika moduli. Bu modul o‘qituvchiga talabaning notani varaqdan chalish darajasini aniqlash imkonini beradi. Gamifikatsiya elementlari – Darslar o‘yin shaklida taqdim etiladi, bu esa o‘quvchi motivatsiyasini oshiradi. Talaba bosqichma-bosqich mukofotlar, ball va reytinglar orqali o‘z rivojini kuzatadi. Repertuar banki – 25 000 dan ortiq klassik va zamonaviy asarlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi darajalar bo‘yicha ajratilgan. Bu esa differensial yondashuvni qo‘llash uchun qulaylik yaratadi. PianoMarvel platformasi an’naviy fortepiano ta’limini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Mustaqil mashg‘ulotlar uchun samarali bo‘lgan bu tizim talabaining ijro mahoratini, texnik ko‘nikmalarini va musiqiy tafakkurini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, individual o‘rganish tezligiga ega talabalar uchun personalizatsiyalashgan ta’lim muhiti yaratadi.

Ilmiy-pedagogik jihatdan ustunliklari: Autentik baholash imkoniyati – talabaning rivojlanishi aniq mezonlar asosida raqamli tarzda baholanadi. Multimodal o‘rganish – ko‘rish, eshitish va amaliy ijro bir vaqtida yuz beradi, bu esa multisensor yondashuvni amalga oshiradi. Metodik moslashuvchanlik – o‘qituvchi o‘z metodikasi asosida darsni shakllantirishi mumkin, chunki dastur individual sozlash imkoniyatlarini beradi. Masofaviy ta’limga moslashuvchanlik – platforma onlayn ishlaydi, bu esa distance learning sharoitida ham samarali foydalanish imkonini beradi. PianoMarvel — fortepiano ta’limida innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilg‘or vositalardan biri hisoblanadi. U o‘quvchi motivatsiyasi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini va texnik ijro malakasini shakllantirishda samarali yordamchi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham u musiqiy-pedagogik jarayonda an’naviy va interaktiv yondashuvlar integratsiyasining muhim namunasi bo‘la oladi.

Synthesia – interaktiv klaviatura va rangli nota oqimlari orqali o‘rgatadi; ayniqsa, vizual xotirasi kuchli bo‘lgan o‘quvchilar uchun foydalidir. Musescore – nota tahrirlagichi bo‘lib, o‘quvchilarga o‘z asarlarini yozish, tahrirlash va tinglash imkonini beradi.

Bu texnologiyalar yordamida talabalar darsdan tashqari vaqtida ham mustaqil mashq qilishlari, o‘z darajalarini nazorat qilishlari mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida fortepiano ta’limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar turli darajadagi musiqiy bilim, texnik ko‘nikma va ijodiy salohiyatga ega. Shuning uchun ularning har biri uchun

individul yondashuv zarur. Differensial yondashuv quyidagi ustunliklarni beradi: 1.O‘quvchining hozirgi imkoniyatiga mos, lekin asta-sekin rivojlanishini ta’minlovchi repertuar tanlanadi. 2.Talaba o‘z muvaffaqiyatini ko‘rgan sari motivatsiyasi oshadi. Masalan, birinchi bosqich talabasi uchun texnik jihatdan yengil, ammo musiqiy ifodaga boy asarlar tanlansa, yuqori bosqichdagilarga zamonaviy yoki murakkab polifonik asar tanlanadi. Ijodiy yondashuv – improvizatsiya va aranjirovka orqali talabalarda yangicha musiqiy fikrlashni rivojlantirish. Ijro usullarini yaxshilash asarni yoki gamma, arpedjiolarni ravonligi va bir tekisda, tutilmasdan, to’xtamasdan ijro etish uchun bir qancha prymolarni ishlatish maqsadga muvofiq. Bunga nuqtali usullarni kiritishimiz mumkin. Albatta buni asarlarda qo’llaganda har bir asarning notalar bo’linishidan kelib chiqib tanlash kerak. Yana bir muhim tomoni bir nuqtali usulni ko’p marotaba ketma-ket ijrosi teskari tarafga ishlashi mumkin yani bundan foyda emas, aksincha zarar olish mumkin. Shuning uchun prymolarni bilan ishlaganda ular haqida ma’lumotlar va bilmlar muhim ahamiyat kasb etadi. O’tkazilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, fortepiano mashg‘ulotlariga ijodiy yondashuv qo’llangan talabalarda: musiqiy tafakkur kengayadi; sahna madaniyati shakllanadi; pedagogik faoliyatda erkinlik va ijodkorlik kuchayadi; - ansambl va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlanadi. Fortepiano ijrochiligi musiqa ta’limida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositasidir. U bo’lajak musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik, pedagogik, kommunikativ va ijodiy kompetensiylarini rivojlantirish bilan bir qatorda, estetik did va musiqiy tafakkurni ham boyitadi. Shuning uchun fortepiano mashg‘ulotlarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish, ularni pedagogik faoliyat bilan integratsiya qilish va ijodiy yondashuvni keng qo’llash bugungi musiqa ta’limi tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy metodlardan xususan, PianoMarvel kabi dasturlardan foydalanish bo’lajak musiqa o‘qituvchilariga sezilarli natijalar olib kelishi mumkin. Bu o‘qituvchidan ortiqcha vaqt, mehnat sarfiga ham ta’sir qiladi albatta. Chunki musiqa o‘qituvchilarini ijro mahoratini oshirishda individual yondashish talab etiladi va ushbu dastur orqali bir qancha vaqt ni tejash, talabada ijro ko’nikmalarini rivojlantirish kabi maqsadlarga erishish mumkin. Bo’lajak musiqa o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqa asbobida xususan fortepianoda ijro, kreativlik, pedagogic qobilyatlar nihoyatda muhimdir

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova N. Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021.
2. G‘ulomova M. Fortepiano o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Rahimov S. Musiqa pedagogikasi asoslari. – Samarqand: Zarafshon, 2020.
4. Uspenskiy V. Metodika obucheniya igri na fortepiano. – Moskva: Muzyka, 2017.
5. Hallam S. Music Education: Research and Practice. – London: Routledge, 2018.
6. Gordon E. Learning Sequences in Music. – Chicago: GIA Publications, 2019.

7. Abdullayev A. Musiqiy tafakkur va estetik tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022
8. Mamatqulov, Z. (2022). *Fortepiano ta’limida zamonaviy texnologiyalarni qo’llash*. Toshkent: Musiqa nashriyoti.
9. Jumayev, R. (2020). *Musiqiy pedagogika asoslari*. Samarqand: Ilm ziyo.
10. Bauer, W. (2014). *Music Learning Today: Digital Pedagogy for Creating, Performing, and Responding to Music*. Oxford University Press.
11. Gorbunova, I.B. (2021). “Digital Tools in Music Education: Applications in Piano Instruction”. *Contemporary Music Pedagogy*, 12(1), 31–40.
12. Tomlinson, C. A. (2017). *How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms*. ASCD.
13. Uzoqova, M. (2023). *Integrativ ta’lim yondashuvi musiqa darslarida*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.